



XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.


Korxonalar va tashkilotlar soni (2022-yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.


Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyat, birlik



xususiy korxonalar, birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi.


Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-mart oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi
(2022-yil yanvar-mart oylarida, umumiy sonidagi ulushi %)




2022-yilning yanvar-mart oylarida 2 084 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 1 767 ta, oilaviy korxonalar 71 ta, xususiy korxonalar 89 ta, muassasalar 55 ta va boshqalar 102 tani tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi
(1- aprel holatiga ko‘ra)



Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)




2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 9 512 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 9,6 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari soni ko‘payishining asosiy omili ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 110,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,5 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 100,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %) o‘shidir.

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda – 75,6 % ni (jami sanoatdagi ulushi 0,3 %), suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda – 95,8 % ni (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %) tashkil etgan.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 281 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,6 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili fuqarolik obyektlarini qurishda - o'tgan yilga nisbatan 119,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,9 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarida - 102,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 30,0 %), bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan - 100,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 61,1 %) tashkil etgan.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 12 143 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 11,2 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan - 9,2 % ga (jami savdodagi ulushi 64,6 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashda o'tgan yilga nisbatan - 18,4 % ga (jami savdodagi ulushi 7,5 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan - 14,3 % ga (jami savdodagi ulushi 27,9 %) o'sishidir.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 944 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 3,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,0 %), yashash bo'yicha xizmatlar – 15,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,0 %) o'sishidir.

**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni**
(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 583 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar sonidan aloqa yo'nalishida – 11,2 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 47,7 %), axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyatda o'tgan yilga nisbatan 3,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,6 %), nashriyotchilik faoliyatida o'tgan yilga nisbatan – 8,3 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 8,9 %) o'sgan.

Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlarida o'tgan yilga nisbatan – 91,4 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 27,4 %), kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqishda o'tgan yilga nisbatan – 85,2 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 4,0 %), dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishda o'tgan yilga nisbatan – 80,0 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,4 %) tashkil etadi.

Oilaviy korxonalar soni (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra 3 179 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 236 taga yoki 8,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 934 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 248 taga yoki 9,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yilning yanvar-mart oylarida 71 ta yangi oilaviy korxonalar tashkil etildi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra 30 844 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 3 780 taga yoki 14,0 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 28 919 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 3 917 taga yoki 15,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 767 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 426 taga yoki 31,7 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofimlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Andijon viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni


(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra 394 tani tashkil etib, ulardan 376 tasi yoki 95,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 17 taga yoki 4,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-mart oylarida viloyatimizda 10 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- y.	2019- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Jami	177	245	316	359	376
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6	19	26	24	23
Sanoat	136	167	184	202	205
Qurilish	7	11	20	22	29
Savdo	12	25	37	51	58
Tashish va saqlash	3	2	2	3	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	7	9	10	9
Axborot va aloqa	-	2	5	4	5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	5	5	5
Boshqa turlar	6	11	28	38	38

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)**


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Viloyat bo'yicha:	376	250	126
shaharlar:			
Andijon sh.	146	84	62
Xonobod sh.	20	14	6
tumanlar:			
Andijon	30	22	8
Asaka	26	20	6
Baliqchi	8	5	3
Bo'ston	5	5	-
Buloqboshi	18	12	6
Jalaquduq	16	8	8
Izboskan	6	4	2
Ulug'nor	4	3	1
Marhamat	14	11	3
Oltinko'l	21	15	6
Paxtaobod	9	6	3
Xo'jaobod	13	10	3
Shahrixon	27	20	7
Qo'rg'ontepa	13	11	2

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida soni

(2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamiyatlarning hududlar kesimida jamiyatlarning ulushi Andijon shahrida 31,7 %, Asaka 7,7 %, Andijon 7,0 %, Shahrixon 6,9 %, Izboskan 5,4 %, Baliqchi 5,1 %, Oltinko'l 4,9 %, Marhamat 4,8 %, Xo'jaobod 4,7 %, Qo'rg'ontepa 4,5 %, Paxtaobod 4,4 %, Jalaquduq 4,1 %, Buloqboshi 2,8 %, Ulug'nor 2,0 %, Bo'ston 1,9 % tumanlari va Xonobod shahri 2,1 % ni tashkil etadi.


**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni


(2022- yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)




2022- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Andijon (25,4 %), Asaka (16,9 %), Shahrixon (12,7 %), Bo'ston (11,3 %), Baliqchi (7,0 %), Qo'rg'ontepa (7,0 %), Oltinko'l (2,8 %), Jalaquduq (2,8 %), Izboskan (1,4 %), Paxtaobod (1,4 %), tumanlari va Andijon (9,9 %), Xonobod (1,4 %) shaharlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining % dagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.